

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIATSHUNOSLIK FAKULTETI

GEOGRAFIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI KAFEDRASI

Fan: Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

REFERAT

MAVZU: Ispaniya xo`jaligiga umumiy tavsif

Bajardi: Boboqulov Botir

Geografiya o`qitish metodikasi

ta`lim yo`nalishi IV “B” - kurs talabasi

Qabul qildi: o`qit. Negmatov S.Q.

Navoiy - 2015

MUNDARIJA

KIRISH.

**I -BOB. ISPANIYANING IQTISODIY-GEOGRAFIK O`RNI VA TABIIY-
DEMOGRAFIK SALOHİYATI.**

1.1. Ispaniyaning iqtisodiy va tabiiy geografik o`rni, resurslari.

1.2. Aholisi va mehnat resurslari.

II BOB. ISPANIYA XO`JALIGIGA UMUMIY TAVSIF.

2.1. Ispaniya xo`jaligi: Sanoati, qishloq xo`jaligi.

2.2. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy mazmunini ishlab chiqarish kuchlarini tarmoqlar va tarmoqlararo miqyoslarda, zamon va makon doirasida o'zaro aloqador komponentlardan iborat kompleks sifatida o'rganish tashkil qiladi. Bunda hudud aholisi, sanoati, qishloq xo'jaligi va transport majmualari, hududiy ishlab chiqarish komplekslari va iqtisodiy rayonlar asosiy sub'ektlar hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya boshqa fanlar bilan aloqador. Aloqadorlik xususan tabiiy geografiya, geologiya, gidrologiya, topografiya va kartografiya, falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, tarix, matematika kabilar bilan nihoyatda yaqinligi bilan ajralib to'radi. Munosabatlar yutuqlar va ma'lumotlardan o'zaro foydalanish borasida va boshqa yo'nalishlarda o'zining ifodasini topadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fan holida shakllanishi va rivojlanishning tarixiy bosqichlarini hisobga olish muhimdir. Bunda turli tarixiy davrlarda ilm-fan, qolaversa jamiyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan Markaziy Osiyolik olim va mutaffakirlardan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Maxmud Qoshg'ariy, Ahmad Donish kabilarning mintaqa iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini umumbashariy, fanlar silsilasi rivojlanishidagi o'rnini baholash bo'yicha qo'shgan hissalarini bebahodir. Hozirgi davr iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining nazariy asoslari va tushunchalari, tamoyillarini ishlab chiqarishning hududiy tarkibini shakllanishini tadqiq etishga g'arb, Rossiya, O'zbekistonlik va qo'shni davlatlar geograflari ham katta hissa qo'shganlar.

Mustaqil O'zbekistonning ilmiy-ma'naviy jihatdan har tomonlama kamol topgan iymonli, e'tiqodli fuqarolarini tarbiyalashda Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasining o'rnini betakrordir. Fanni o'rganish orqali Markaziy Osiyo mintaqasining iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati, uning dunyo hamjamiyatida tutgan o'rnini va ahamiyati, turli xil hududiy-ishlab chiqarish imkoniyatlari kabilar haqida yoshlarimizga bilim beriladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tadqiqot predmeti hisoblanadigan ishlab chiqarish kuchlari hududiy tarkibining (makon va zamon doirasida) rivojlanishida bir qator omillar faol qatnashadilar. Ular tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, texnika kabi omillar bo'lishi mumkin. Omillar jamiyatda ijtimoiy hayot rivojlanishi jarayonida turli sharoitlarda turlicha amaliy ta'sirga egadirlar. Albatta, jamiyat ishlab chiqarishi rivojlanishi o'ziga xos ob'yektiv ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari, tamoyillari asosida amalga oshadi va turli xududiy ishlab chiqarish tizimlari, tarmoqlararo majmualari, o'ziga xos moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy metodologik negizi bo'lib, jamiyatning hududiy tashkil etilishi haqidagi ta'limot hisoblanadi. Jamiyat ijtimoiy hayotini hududiy tashkil etilishi keng qamrovli tushuncha bo'lib, u hududiy (geografik) mehnat taqsimoti natijasida shakllangan ishlab chiqarish majmualari va tizimlari, ularning hududiy joylashishi, regional iqtisodiy-ijtimoiy tafovutlari, shuningdek jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik kabi masalalarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda, insonning ko'p qirrali hayotiy faoliyatini uni o'rab turgan tabiat bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganadi.

I.BOB. ISPANIYANING IQTISODIY- GEOGRAFIK O`RNI VA TABIIY-DEMOGRAFIK SALOHIYATI.

1.1. Ispaniyaning iqtisodiy va tabiiy geografik o`rni, resurslari.

Ispaniya (Espana), Ispaniya Qirolligi (Reino de Espana) — Yevropaning janubi-garbida, Pireney yarim orolida joylashgan davlat. G`arbda – Portugaliya, shimolda – Fransiya va Andorra davlatlari bilan chegaradosh bo`lib, shimolda – Atlantika okeani suvlari, sharqda esa O`rta yer dengizi suvlari yuvib turadi. O`rta dengizdagi Balear (shu jumladan Pitius), Atlantika okeanidagi Kanar orollari, Afrikaning shimoliy qirg`og`idagi Seuta va Meliliya shaharlari va unga yondosh Veles-de-la-Gomera, Alusemas, Chafaranasa orollari ham, yana 2 ta shahar Seuta va Meliliya shaharlari ham Ispaniyaga qaraydi. Mamlakat hududining kattagina qismi, tog`lar va tepaliklardan iborat bo`lib, Shveysariyadan keyin Ispaniya Yevropadagi eng baland hududli davlat hisoblanadi. Mamlakatning markazida yassi (asosan Meseta) va o`rta balanlikdagi tog`lar (Markaziy Kordilera, Serra-Morena va b.) mavjuddir. Shimolda va shimoli-sharqda - Pireney (balandligi 3 404 m keladgan Aneto cho`qqisi), Kantabriy, Iberiy va Katalon tog` tizmalari, janubda esa Serra-Nevada (balandligi 3 487 m keladigan Mulasen cho`qqisi) vohasiga ega Andalusiya tog`lari egallab olgan.

Maydoni - 504,8 ming km². Aholisi 42,439 mln. kishi (2011). Ma`muriy jihatdan o`z hukumati va parlamentiga ega bo`lgan 19 muxtor regionga, ular, o`z navbatida, 50 viloyat (provinsia)ra bo`linadi. Poytaxti — Madrid shahri.



Tabiati. Ispaniya subtropik iqlim mintaqasida joylashgan. Qirg'oq chizig'ining uzunligi orollar bilan birga 5 ming km dan ko'proq. Ispaniya hududining aksar qismi plato, o'rtacha balandlikdagi tizmalar, yassitog'liklar va pasttekisliklardan iborat. Platolarning balandligi shimoli-g'arbda 800— 1000 m, janubi-sharqda 500—600 m. Ular o'rtasida janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa yo'nalgan Markaziy Kordilera tog' tizmalari bor. Ispaniyaning shimoli-g'arbida Galisiya massivi va Leon tog'lari, Biskay qo'ltig'i sohilida Kantabriya tog'lari bor. Ular sharqda Pireney tog'-lariga ulanib ketadi. Janub va janubi-sharqida

Ispaniya tabiiy kartasi



Andalusiya tog'lari, janubi-g'arbida Andalusiya pasttekisligi bor. Serra-Nevada tizmasidagi Mulasen tog'i (3478 m) Ispaniyadagi eng baland tog'dir. Ispaniyada uran, mis, simob, qo'rg'oshin, temir, volfram, qalay, oltin, kumush, margimush, marganets konlari bor. Toshko'mir, kaliy tuzi, kaolin, apatit ham qazib olinadi.

Iqlim resurslari quyidagicha tarzda o'zgarib boradi. Shimoliy va shimoli-g'arb qismida mo'tadil okean iqlimi, qish yumshoq, yoz iliq. Yillik o'rtacha yog'in 1000—2000 mm atrofida. Dengiz sohilda yanvarning o'rtacha harorati 7-9°C, iyulniki 18—20°C. Mamlakatning qolgan qismida O'rta yer dengizga xos subtropik iqlim, yoz quruq, issiq, qish yumshoq, seryog'in. Yanvarning o'rtacha harorati tabiiy geografik o'lkalarning holatiga mos tarzda o'zgarib boradi. Masalan: Meseta platosida 4—5°C, janubda 12—13°C, iyul oyiniki esa 23—29°C ni tashkil qilmoqda. Ispaniyaning markazi, sharqi va janubi-sharqida yog'in kam (300—500 mm) tashkil etadi.

Daryolari, asosan, yomg'irdan to'yina-di, yezda juda sayozlanib qoladi. Faqat shim. va shim.-garbidagi daryolar yil bo'yi sersuv. Yirik daryolari: Taxo, Ebro, Gvadalkvivir, Duero, Gvadiana va boshqalar. Ulardan energiya olishda va sug'orishda foydalaniladi. Ispaniyaning shimol va shimoli-g'arbidagi tog'-o'rmon qo'ng'ir tuproqlarda qora qayin, dub, kashtan o'rmonlari, tog' yon bag'irlaridagi tog' podzol tuproqlarida qarag'ay o'rmonlari bor. Pireney tog'larida 2000 m dan balandda o'tloq mintaqalari joylashgan. Ispaniyaning qolgan qismida doim yashil dublar, qarag'ay, sarv, kashtan, zarang, lipa va boshqalar o'sadi. Mamlakatning eng chekka janubida palmazorlar uchraydi. Hayvonlardan tulki, suvsar, qo'ng'ir ayiq, bo'rsiq, tog echkisi, serna, viverra, quyon, tipratikan bor. Gibraltar bo'gozi atrofida makaka maymun (Yevropada faqat shu yerda) uchraydi. Qushlarning 400 ga yaqin turi bor. Sudralib yuruvchilar ko'p. Tunets, sardina, treska baliqlari va dengiz jonivorlari ovlanadi. Noyob hayvonlar va tabiiy landshaftni saqlash maqsadida bir necha milliy bog' va qo'riqxonalar tashkil etilgan. Milliy bog'lari: Aygues-Tortes-i-Lago-San-Maurisio, Kova-donza, Ordesa kabi ajoyib bog'lar tashkil qiladi.

1.2. Aholisi va mehnat resurslari

Aholisining etnik tarkibi: Ispaniya turli davrlarda hududlar va etnik guruhlar asosida birlashtirilgan yagona mamlakat hisoblanib, ularning ichida eng asosiylari:— kataloniyaliklar - 15,6%, andalusiyaliklar - 15,6%, kastilliklar – 11,1 %, valensiyaaliklar – 9,7 %, galisiylar - 7,4 %, basklar – 5,6 %ni tashkil etsa qolganini yana boshqa mayda-mayda etnik guruhlar tashkil etadi. Rasmiy til — ispan tili. Avtonom hududlarda ispan tili bilan birgalikda boshqa tillar ham qoʻllaniladi. Koʻpchilik dindorlar — katoliklar (95 % ga yaqin aholi sigʻinadi). Aholining - 78,4% shaharlarda yashaydi. Yirik shaharlari: Madrid, Barselona, Valensiya, Seviliya, Saragosa, Bilbao, Malaga.

Ispaniyaning qadimiy ajdodlari iber qabilalari hisoblanadi. Galliyadan german qabilalari — vest-gotlar (414 y.), Gibraltar orqali arablar va barbarlar (714 y.) bostirib kirib, Ispaniyaning etniktarkibiga kuchli taʼsir ispan yerlarini birlashtirish bilan tugagan, bu esa Ispaniyaning milliy ongini shakllanishiga imkon tugʻdirgan. Pekin, 20-asrgacha ayrim viloyatlar axoliev oʻzlarini kastiliyaliklar, aragon-lar, andaluzlar va b. deb atab kelish-gan. Ispaniya 19-asr oxirida millat boʻlib shakllangan. Ispaniya Lotin Amerikasidagi koʻplab hozirgi xalqlarning shakllanishiga katta taʼsir koʻrsatgan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Ispaniya hududida odam quyi paleolit davridan yashaydi. Leridadan Kadisgacha boʻlgan hududlarda mezolitga oid qoyatosh surʼatlari koʻp topilgan. Miloddan avvalgi VII-asrdan Ispaniyaning janubiy va sharqiy sohil boʻylari finikiyaliklar va yunonlar tomonidan oʻzlashtira boshlangan. Miloddan avvalgi 700—500 yillarda Oʻrta yer dengizi sohilida iberlar madaniyati paydo boʻldi. Miloddan avvalgi 3-asr oxirlarida Ispaniya hududining koʻp qismi Karfagen qoʻl ostiga oʻtdi. Mil. av. 2-a. boshiga kelib rimliklar karfagenliklarni siqib chiqardi. Mil. av. 197 y.da Rim Ispaniya hududini 2 viloyat (Yaqin Ispaniya va Olis Ispaniya)ga boʻlib yubordi. Mil. 409 y. Ispaniyaga alanlar, svev va vandallar, 418 y.dan vestgotlar ki-rib kela boshladi. 711—718 y.larda Pirenei ya. o.ning deyarli



hammasini arablar bosib olib, 756 y. mustaqil davlat — Kordova amirligini, 929 y.da esa Kordova xalifaligini tuzdi. Kordovada sug`oriladigan dehqonchilik paydo bo`ldi, hunarmandchilik, savdo-sotiq, fan va madaniyat yuksaldi. 1031 yil xalifalik bir necha amirlikka bo`lindi. 8-a.dan boshlab mavrlar ko`l ostida bo`lgan yerlarni ispanlar kay-tarib ola boshladilar (Rekonkista dav-ri). Rekonkista davrida Kastiliya va Aragon qirolliklari vujudga keldi (11-a). 12-asrda dvoryanlar, ruhoniylar, shaharliklar va yuqori tabaqa dehqon-lardan iborat korteslar paydo bo`ldi. Ular qirol hokimiyatini cheklab tur-dilar.

1479 yil - Aragon bilan Kastiliya o`rtasi-da tuzilgan sulola ittifoqi (aragonlik Ferdinand bilan kastiliyalik Izabellaning 1469 yilgi nikohi) natija-sida Ispaniya yagona davlatga aylandi. 1480 y. absolyutizm quroli hisoblangan inkvizitsiya joriy qilinib, mavr va yahudiylar (asosan, dehqonlar-, hunar-mandlar, savdogarlar) mamlakatdan quvildi. 1504 y. Ispaniyaga Neapol qirol-ligi (Jan. Italiya) va Sitsiliya qo`shib olindi. Ispaniya 1494—1559 y.larda Italiya-ga qarshi urushlarda SHim. va O`rta Ita-liyaning qator yerlarini bosib oldi. Karl Ispaniyaning taxtga o`tirishi (1516) b-n I.da Gabsburglar sulolasi hukm sura boshladi. SHu yili Ispaniyaga Niderlandiya qo`shib olindi.

Ispaniya 1956 yilda Shim. Marokash, 1968 yilda Ekvatorial Gvineya, 1976 yilda G`arbiy Sahroi Kabir kabi mustamlakalaridan mahrum bo`ldi. 1982, 1986, 1989 va 1993 y.lardagi parlament saylovlarida sotsialistik ishchi partiyasi g`alaba qozondi. 1996 va 2000 yilgi saylovda esa Xalq partiyasi nisbiy ko`pchilik ovoz olib, hukumatni tuzish huquqini qo`lga kiritdi.

Ispaniya — 1955 y.dan BMT a`zosi. Milliy bayrami 12 oktabr kuni -Ispan Millati Kuni (1492). O`zbekiston Respublikasi bilan diplomatiya munosabatlarini 1992 yil 17 martdan boshlab o`rnatgan.

Siyosiy partiyalari, kasaba uyushmala-ri. Ispaniyada 500 dan ko`proq siyosiy partiya va jamoat tashkiloti ro`yxatga olingan. Asosiy partiyalari: Xalq partiyasi (1989 y. yanv.gacha Xalq uyushmasi), 1976 yilda tuzilgan; Ispaniya sotsialistikishchi partiyasi, 1879 y.da tuzilgan; Ispaniya kommunistikpartiyasi,


1920 y.da tuzilgan; Basklarning millatparvar partiyasi, 1993 y.da tuzilgan; Kataloniya demokratikkonvergensiyasi, 1974 y.da asos solingan; Valensiya ittifoqi. Kasaba uyushma birlashmalari: Mexnat-kashlar umumiy ittifoqi, 1888 y.da tuzilgan; Ishchilar kasaba uyushma birlashmasi, 1960 y.da asos solingan; Ishchi komissiyalari, 1956 y.da tuzilgan.

Davlat tuzumi. Ispaniya — konstitutsion monarxiya. Amaldagi konstitutsiyasi 1978 yil 6 dekabrda milliy referendumda ma'qullangan, o'sha yili 29 dekabrda kuchga kirgan; 1992 yilda unga tuzatishlar kiritilgan. Davlat boshlig'i — qirol (1975 yil 22 noyabrdan Xuan Kar-los I) uning huquqi konstitutsiya bo'yicha cheklangan. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Bosh korteslar (parlament) amalga oshiradi. Korteslar ikki palata — deputatlar kongressi va senatdan iborat. Ijrochi hokimiyatni hukumat amalga oshiradi. Ispaniya 19 ta ma'muriy (50 provnsiyani birlashtirib turuvchi) viloyatga bo'linadi.

Tibbiy xizmati. Davlat davolash muassasalari bilan bir qatorda xususiy shifoxonalar ham bor. Ko'pgina shifokorlar hususiy qabulxonalar ochishgan. Oliy o'quv yurtlarining 19 fakulteti shifokorlar tayyorlaydi. Mamlakatda, ayniqsa, uning dengiz sohillarida kurortlar kup. Ularning eng muhimlari San-Sebastyan, Valensiya, Barselona shaharlarida joylashgan.

Maorifi, ilmiy va madaniy-ma'rifiy muassasalari. 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 8 y.likmajburiy ta'lim joriy etilgan. 4 yil boshlang'ich, 7 yillik o'rta maktablar bor. Kuchaytirilgan toifadagi hunar-texnika va tijorat maktablari ishlaydi. Boshlanrich maktab o'qituvchilari 3 yillik pedagogika bilim yurtlarida, o'rta maktab o'qituvchilari un-tlarda tayyorlanadi. Mamlakatda 35 davlat universiteti, 4 katolik universitet, 3 ta politexnika instituti bor. Eng yiriklari: Salamanka (1218), Barselona (1430), Sevilya (1502), Madrid (1508) un-tlari, Sirtqi ta'lim universiteti (1972), Bilbao universiteti (1968), Valensiyadagi Politexnika universiteti, Santyago-de-Kompostela shahridagi universitet. Mamlakatdagi institut ishlarini 1939 yilda tuzilgan Ilmiy tadqiqotlar Oliy kengashi uyushtiradi va muvofiqtashtiradi. Akademiyalari: Madriddagi Ispan

qirollik akademiyasi (1713), Huquqshunoslik va qonunchilik qirollik akademiyasi (1730), Qirollik milliy tibbiyot akademiyasi (1732), Barselonadagi Fan va san'at qirollik akademiyasi (1764), Madriddagi Axloqiy va siyosiy fanlar qirollik akademiyasi (1857). Bir qator ilmiy tadqiqot institutlari mavjud. Ispaniyada 57 yirik kutubxona, jumladan, Madriddagi Milliy kutubxonasi bor. Mamlakatda 90 muzey bo'lib, yiriklari Madriddagi Prado muzeyi (1819), Milliy arxeologiya muzeyi (1867), Barselona, Kordova, Valensiya va Sevilyadagi badiiy muzeylardir.



II.BOB. ISPANIYA XO`JALIGIGA UMUMIY TAVSIF.

2.1. Ispanya xo`jaligi: Sanoati, qishloq xo`jaligi.

**Xo`jaligi.** Ispaniya industrial-agrar mamlakat. Sanoat ishlab chiqarish hajmi jihatidan G`arbiy Yevropada 5-o`rinda, rivojlangan mamlakatlar o`rtasida 8-o`rinda tu-radi. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 23%, qishloq xo`jaligi ulushi 3,5%, xizmat ko`rsatish sohasining ulushi esa 60 % dan ortadi. Ba`zi subtropik va bogdorchilik mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilishda dunyoda oldingi o`rinlarda turadi.

Sanoatida og`ir sanoat yetakchi o`rinda turadi. Tog`-kon sanoati, qora metallurgiya, mashinasozlik, avtomobil va kemasozlik, stanoksozlik, elektrotexnika, kimyo sanoati va to`qimachilik g`oyat ri-vojlangan. Sanoatning eng qad. tarmog`i — to`qimachilik ham ravnaq topgan. Elektron sanoati tez sur`atlar bilan taraqqiy etmoqda. Ammo konchilik va metallurgiya tarmoq-laridagi ishlab chiqarish qisqarib bormoqda. Mamlakatda to`qimachilik, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati korxonalari deyarli butun hudud bo`ylab yoyilgan.

100 turdagi foydali qazilmalardan 16 tasi qayta ishlanadi. Pirit, simob, temir, qo`rg`oshin-rux, uran, qalay, mis rudalari va toshko`mir qazib olinadi. Rangli metallurgiya sanoatida – qo`rg`oshin, mis, alyuminiy ishlab chiqariladi. Qazib olinadigan neft Ispaniya ehtiyojining 10% ni qondiradi. So`nggi yillarda, mamlakatda to`qimachilik va oziq-ovqat sanoatining yirik korxonalari ko`paymoqda. Bu sanoat turlarining kengayishi va tobora taraqqiy etib borishi aholi sonining ko`payishi bilan uzviy bog`liqdir.

Asosiy xo`jalik mahsulotlari: - bug`doy, arpa, sul, makkajo`xori, guruch, loviya, kartoshka, qand lavlavlagi, paxta, tamaki, shakarqamish, sabzavotlar, zaytun, bodom, tsitrus mevalar va uzumning bir necha navlari yetishtirib bermoqda. Chorvachilikning ma`lum bir turi, ayniqsa, Ispaniyaliklarning milliy sport turi sifatida e`tirof etiladigan “korrida” jangi uchun maxsus buqalar boqiladi.

Eng yirik kemasozlik korxonalari Bilbao, Kartaxena, Barselonada,

avtozavodlar Madrid, Barselona, Valyadolid, Vigo kabi saharlarda taraqqiy etib borayotgan bo`lsa, qora metallurgiya korxonalari: Biskayya, Santander, Asturiya, Valensiya viloyatlarida, rangli metallurgiya Kordova, Xaen, Mursiya, Ovedo, Santander, Gipuskoa, Biskayya viloyatlarida, chetdan keltirilgan neftni qayta ishlovchi korxonalar: La-Korunya, Santa-Krus-de-Tenerife, Eskombreras va yana bir qancha port shaharlarida, vinochilik sanoati: Kataloniya, Aragon, Andalusiya va Yangi Kastiliya viloyatlarida joylashgan.

Ispaniyada yiliga 155,7 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Elektr energiya, asosan, GES larda hosil qilinadi. 3 ta AES mavjud. Yoqilg`i taqchilligi muqobil energiya manbalarini izlashni taqozo qiladi. Quyosh va geotermal stansiyalardan keng miqyosda foydalaniladi. Asosiy sanoat markazlari — Barselona, Madrid, Bilbao, Ovedo shaharlari hisoblanadi. Mamlakat jahon turizmida alohida e`tiborga molik davlatlardan biri hisoblanadi. Ispaniya milli iqtisodiyotining kattagina ulushini turizmdan oladi.

**Qishloq xo`jaligi.** Xo`jaligida qoramolchilik rivojlangan. Qishloq xo`jaligida g`alla ekinlari yetishtirish yetakchi o`rinni egallaydi. Asosiy tarmoq dehqonchilik, qishloq xo`jaligi mahsuloti qiymatining yarmiga yaqini uning ulushiga to`g`ri keladi. Mamlakat maydonining 71% da dehqonchilik qilinadi. Asosiy qishloq xo`jalik mahsulotlari: - bug`doy, arpa, sulii, makkajo`xori, guruch, loviya, kartoshka, qand lavlagi, paxta, tamaki, shakarqamish, sabzavotlar, zaytun, bodom va tsitrus mevalar eksportga mo`ljallab yetishtiriladi. Ispaniyada vino (dunyoda 3-o`rin) tayyorlanadi, tsitrus mevalar (apelsin hosili bo`yi-cha Yevropada 1-o`rin, yiliga 3 mln. tonna), bug`doy (ekin maydonining 20%), sholi (dunyoda eng yuqori hosildorlik: gektaridan 60—70 tsentner), bodom, tamaki, paxta, qand lavlagi, sabzavot (ekin maydonining 69%), kungaboqar yetishtiriladi. Oliy nav zaytun yog`i ishlab chiqarishda dunyoda 1-o`rinda turadi (yiliga 400 ming t dan ziyod). Chorvachilik yaxshi rivojlangan: qoramol, cho`chqa, echki, qo`y boqiladi. Baliq va dengiz jonivorlari ovlash hamda qayta ishlashda dunyodagi o`nlikka kiradigan Yevropaning kam sonli mamlakatlaridan biri hisoblanadi.

2.2. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari

Ispaniyada temir yo'llarining umumiy uzunligi — 14378 km, avtomobil yo'llari uzunligi — 324 ming km. Asosiy dengiz portlari: Kartaxena, Barselona, Bilbao, Santa-Krus-de-Tenerife. Madrid va Barselona shaharlaridagi aeroportlar mamlakatdagi eng yirik aeroportlardir. Ispaniya chetga mashinasozlik (kema va avtomobillar), qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati maxsulotlari (tsitrus mevalar, meva-sabzavot kon-servalari, vino, zaytun yog'i) chiqariladi.

Savdo-sotiqdagi asosiy mijozlari: Yevropa Ittifoqi mamlakatlari (import — 56%, eksport — 66%), AQSH (import — 8% va eksport 9,2%), Yaqin Sharq mamlakatlari (8,6% va 8,1%), Lotin Amerikasi mamlakatlari (6,1% va 4,2%).

Chet el sayyohligidagi — muhim daromad manbai. Har yili Ispaniyaga 52 million sayyoh kelib ketadi, bu soha 20 mlrd. dollargacha daromad beradi (AQSH dan keyin 2-o'rin). Sayyoxlarga 6 mln. kishi xizmat qiladi. Pul birligi — peseta.

O'zbekiston — Ispaniya munosabatlari. O'zbekiston — Ispaniya o'rtasida 15-asrdayoq aloqa o'rnatilgani, 1404 yilda Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsales - de Klavixo Samarqandga kelgani va Amir Temur saltanati haqida esdaliklar yozgani tarixdan ma'lum.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin Ispaniya bilan savdo-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarda hamkorlik yo'lga qo'yila boshladi. Ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining o'zaro tashriflari chog'ida hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy negizini yaratuvchi bir qancha hujjatlar kelishib olindi.

Ikkala mamlakatning savdo-iqtisodiy aloqalari O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlari doi-rasida rivojlanayotir. O'zaro tovar ay-lanmasi 2000 yilda 1999 yilga nisbatan 1,9 baravar oshdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Ispaniyaga eksporti 20,1 mln., importi 5,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. O'zbekiston bu mamlakatga paxta tolasi, gazlama, kalava ip eksport qilsa, undan elektrotexnika va mexanika asbob-uskunalari, dori-darmon, qora metal-lar, plastmassa, keramika mahsulotlari sotib oladi.

Ispaniya kompaniya va firmalari bilan hamkorlik sohasida Buxoro viloyati suv ta'minoti tizimini takomillashtirishga kirishildi. 15 mln. yevro qiymatiga ega bo'lgan bu loyiha Ispaniya hukumatining imtiyozli va tijorat krediti hisobidan amalga oshiriladi. «O`zmeva-sabzavotuzumsanoatxolding» kompaniyasi bilan «Altieri Vinikola» firmasi O`zbekistonda vino ishlab chiqaradigan «YANIS» qo`shma korxonasini barpo etdi. «O`zfarm sanoat» kontserni bilan Ispaniyaning «Krupak» kompaniyasi bint va jarrohlikdokasi ishlab chikaradigan korxona barpo etish uchun 7,9 mln. yevro miqdorida pul sarfladi. O`zbekiston Respublikasida Ispaniya sarmoyasi ishtirokidagi 11 korxona tashkil etilgan.

O`zbekistan Fanlar Akademiyasi institutlari bilan Ispaniya Milliy tadqiqot kengashi o`rtasida quyosh energiyasini fotoelektr usulida o`zgar-tirish, yarim o`tkazgichli materialshu-nosliksohalarida hamkorlikyo`lga qo`yilgan. O`zbekiston Respublikasi Jahon tillari un-ti Ispaniyaning Granada, Madrid, Alkala de Enares va Malaga universitetlari b-n hamkorlik o`rnatgan. Toshkentdagi shu universitetda ispan tili va madaniyati markazi ochilgan. Granada va Buxoro universitetlarining hamkorlik qilishi haqida kelishib olingan.

Ispaniya merosi - Ispaniya taxti va uning mulklariga egalik qilish hamda Yevropada siyosiy ustunlikka erishish maqsadida olib borilgan urush (1701 — 1714). Ispaniyaning so`nggi Gabsburgi (hukmdori) — Karl II ning vafoti (1700) dan so`ng boshlangan. Frantsiya Karl II ning vorisi yo`qligini bahona qilib Ispaniya taxtiga Lyudovik XIV ning nabirasi Filipp Burbonni o`tqazdi. Shunda Buyuk Britaniya, Gollandiya, Avstriya, Prussiya va b. davlatlar o`zaro uyushib, mazkur frantsuz-isan ittifoqiga qarshi chiqdi. Ikki o`rtadagi urush Utrext (1713) va Rashtat (1714) sulh shartnomalari bilan yakunlanib, natijada Ispaniya Yevropa va Shimoliy Amerikadagi bir qancha mulkidan mahrum bo`ldi. Ispaniya-Amerika urushi - ispan mustamlakachilariga qarshi Kuba (1895 yildan) va Filippin (1896 yildan) xalqlarining qo`zg`oloni sharoitida boshlangan urush (1898). AQSH go`yo bu xalqlar kurashini yoqlab chiqqan bo`lib undan o`z maqsadi yo`lida foydalanildi va Puerto-Riko, Guam oroli, Filippinni bosib olgan.

XULOSA

Xulosa o`rnida, shuni aytish mumkinki, maktab geografiya ta`limida o`tiladigan barcha mavzularning o`ziga xos jixatlari va ahamiyati bor. Maktablarda boshlang`ich geografiya, tabiiy geografiya ta`limida so`ng iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning tarmoqlari bo`yicha bilim beriladi. O`qitiladigan mavzular darsdan darsga o`tgan sari murakkablashib va dolzariblashub boraveradi. Hozirgi zamon taraqqiyoti, fani rivojlanib borayotgan bir paytda maktablarda o`ziga xos ta`lim jarayonini tashkil etish, o`quvchining bilim olish uchun turli vositalardan foydalanishga o`rgatish muhim masaladir. O`quvchining erkin fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash va uni malum bir mutaxassisliklar bo`yicha yo`naltirishda geografiya fanining hissasi katta. Shu bilan birga, bu fanni zamonga mos ravishda rivojlantirish, fan texnika taraqqiyoti yutuqlaridan bahramand etish har bir geografning vazifasidir.

Men umumta`lim maktablari 9-sinf o`quvchilari uchun mo`ljallangan “Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” o`quv darsligi va aynan shu yoshdagilarga mo`ljallab chiqarilgan o`quv atlasidagi ma`lumotlarni, statistik raqamlar, kartodiagrammalarni va kartadagi boshqa ma`lumotlarni bir-biriga solishtirish orqali fanning murakkabligini o`rgandim. Bu kurs ishini yozish davomida O`zbek olimlaridan A.Soliev, T.Mirzaliyev, A.Abdulqosimov, A.Soatov, P.Musayev, O.Muminov, A. Qayumov, R.Qurboniyozovlarning asarlari, internet ma`lumotlari, ensiklopediyalar, Prezidentimiz I.A.Karimov asarlaridan foydalandim. Hozirgi kunda Jahonning rivojlangan va rivojlanib borayotgan mamlakatlarning iqtisodiyoti va undagi yetakchi tarmoqlar, tabiiy resurslari va foydali qazilma turlari, aholisi va mehnat resurslari, mamlakatlarning xo`jaligiga umumiy ta`rif berish, sanoati va qishloq xo`jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari haqidagi eng so`nggi yangiliklarni o`quvchilar auditoriyasiga havola etishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida, xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” Toshkent. 1997 y.
2. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Ma’ruzalar matni. Qo`qon–2008.
3. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi
4. Jahon mamlakatlari (ma`lumotnoma). T.1990.
5. Soliev A., Safarov I. “Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari”. T.:2003y.
6. Qayumov A., Safarov I., Tillaboeva M. “Jahon iqtisodiy – ijtimoiy geografiyasi” T. “O’zbekiston” 2014 y.
7. www.referatu.ru
8. www.Tdpu.Uz
9. www.pedagog.Uz
10. www.Ziyonet.Uz